

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

XURSHID DAVRON IJODIDA METAFORALAR VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Sultanova Xurshida Uktamjanovna

O'zbekiston Milliy universiteti, magistr.

e-mail: sultanovakhurshida323@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-0944-1228>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada lingvokulturologik birlik sanalgan metaforani o'rganish masalalari atroflicha talqin qilingan hamda publitsistik uslubga oid matnlarda qo'llangan metaforalar Xurshid Davron ijodi misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, metafora, publitsistik uslub, metaforik leksema, metaforik birikma, metaforik frazema, gap metaforalar, matn-metaforalar.

МЕТАФОРЫ И ИХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУРШИДА ДАВРОНА

Султанова Хуршида Уктамжановна

Национальный университет Узбекистана, магистрант.

Аннотация.

В данной статье подробно рассматриваются вопросы изучения метафоры как лингвокультурологической единицы, а также проводится анализ метафор, используемых в текстах публицистического стиля, на примере творчества Хуршида Даврона.

Ключевые слова: лингвистика, метафора, публицистический стиль, метафорическая лексема, метафорическое сочетание, метафорическая фраза, речевые метафоры, текстовые метафоры.

METAPHORS AND THEIR LINGUOCULTURAL ANALYSIS IN KHURSHID PERIOD'S CREATION

Sultanova Xurshida Uktamjanovna

National University of Uzbekistan, Master's Student.

Abstract.

In this article, the issues of studying metaphor, which is a linguistic-cultural unit, are interpreted in detail, and metaphors used in journalistic style texts are analyzed on the example of Khurshid Davron's work.

Keywords: linguistics, metaphor, journalistic style, metaphorical lexeme, metaphorical combination, metaphorical phrase, speech metaphors, text-metaphors.

Kirish. Publitsistik nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda badiiy va rasmiy uslub vositalaridan unumli foydalanilishidir. So'zlarning ko'chma ma'nolarini qo'llash orqali esa publitsistik nutqning badiiyligi ta'minlanadi. Til birliklaridan hisoblangan leksema va iboralarni nutq talabi bilan ko'chma ma'noda qo'llash orqali publitsistik uslubga xos matnlarning emotsional-ekspressivligi ta'minlanadi. An'anaviy tilshunoslikda metafora shunchaki bir so'zning boshqasi bilan almashtirilishi sifatida talqin qilingan bo'lsa, kognitiv tilshunoslikda esa bu tushuncha insonning fundamental bilish faoliyatining namoyon bo'lishi sifatida izohlanadi. Metaforalar madaniy belgilarning ko'rsatkichi sanaladi. Lingvokulturologiyada metaforalarning aynan shu belgisi o'rganiladi. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari [1; 85–86-b.].

Lingvistik metaforalar asosan atash, nomlash vazifasini bajaradi, ularda uslubiy bo'yoq aks etmaydi, ya'ni muallifning subyektiv munosabati ifodalanmaydi. Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining borliqqa subyektiv munosabatini ifodalaydi. Bunday metaforalarda uslubiy jihatdan bo'yoqdorlik va ekspressivlik namoyon bo'ladi. Xususiy-muallif metaforalari o'zida konnotativ ma'no ifodalashi bilan lingvistik metaforalardan farqlanadi. M. Yo'ldoshev **"Badiiy matnning lisoniy tahlili"** nomli kitobida tilshunoslikda mazmun jihatdan metaforalarning uch turi, ya'ni odatiy metaforalar, sinestetik metaforalar va jonlantirish metaforalari farqlanishini aytadi [2; 73-b.].

Mustaqillik yillarida tildagi mazkur hodisa publitsistik asarlar misolida tadqiq qilingan yangicha yondashuvdagi ilmiy asarlar ham yuzaga keldi. Metaforani turlarga bo'lib o'rganish turli tasniflarning paydo bo'lishiga olib keldi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, M. Yo'ldoshev metaforaning uch turini qayd etgan bo'lsa, M. Jonson uni ikki turga (lingvistik metaforalar va konseptual metaforalar) ajratgan holda o'rganishni taklif qiladi. Tilshunos D. Xudoyberganova uni milliy metallikni saqlovchi madaniy belgi sifatida e'tirof etib, to'rt xil metaforani ajratadi: so'z metaforalari, birikma

metaforalari, gap metaforalari va matn metaforalari. M. Dedaxanova esa D. Xudoyberganova tasnifini ta'kidlab, Rauf Parfi asarlaridagi metaforalarni besh guruhga bo'lib o'rganishni taklif qiladi: 1) metaforik leksema; 2) metaforik birikma; 3) metaforik frazema; 4) metaforik gap; 5) metaforik matn [3; 19-b.].

Ushbu maqolada Xurshid Davron publitsistik asarlari tilshunos M. Dedaxanova tasnifiga ko'ra tahlil qilindi.

1. Metaforik leksema. Bizning tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, Xurshid Davron publitsistik asarlarida metafora so'z shaklida nisbatan kam qo'llangan. Metafora matn tarkibida tushunchani ifodalab kelganida odatda so'z yoki so'z birikmasi shaklida namoyon bo'ladi. Misollar tahliliga to'xtalsak:

“Qaysidir satrlarni bosh chayqab o'zgartirdi, yana bir satrlarni «yumshatdi». Ammo to'plamni menga qaytarar ekan, ustoz: «Men o'zgartirgan satrlarni vaqti kelganda o'zingiz yozgandek chiqarasiz», dedi.” [4.]

Matndagi **“yumshatdi”** so'zi o'z ma'nosida **“chopish, haydash yo'li bilan tuproqni yumshoq, g'ovak holga keltirish”** ma'nosini anglatadi, ko'chma ma'noda esa **“pasaymoq, susaymoq, bo'shashmoq (sovuq vaziyat va shu k.)”** kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etilgan [5; 277-b.].

Muallif uchinchi kitobini nashrga tayyorlash chog'ida yuz bergan voqeani hikoya qilib berar ekan, ichkilikka qarshi kurash kompaniyasi o'z ishini boshlagandan keyin badiiy asarlardagi **“may”, “sharob”, “boda”** so'zlarini boshqa so'zlarga almashtirishni talab qilishganida Xurshid Davron bunga norozi bo'lganini, so'ng ustoz Erkin Vohidov ba'zi so'zlarni o'zgartirganini **“yumshatdi”** metaforasi orqali izohlagan. Ya'ni milliy kolorit ufurib turgan satrlardagi milliylik biroz pasaytirildi, susaytirildi degan ma'noni yuzaga chiqarish uchun qo'llangan.

2. Metaforik birikma. So'z birikmasi ko'rinishidagi metaforalar asosan nasriy asarlarda uchraydi. Bunday birikmalarning qaratqichli birikma tarzidagi ko'rinishi ko'p uchraydi: **bo'yoqlar sukunati, yurakning tubi** kabi. Xurshid Davron publitsistik asarlarida qo'llangan birikma-metaforalarni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin: **metaforik otli birikma va metaforik fe'lli birikma.**

Metaforik otli birikma. Adib publitsistik asarlarida so'z birikmasi ko'rinishidagi metaforalarning har ikki turidan unumli foydalangan. Metaforik otli birikma qo'llangan matnlarni tahlil qilamiz:

“Bu asarni o'zbek tiliga qoyilmaqom tarjima qilgan Hayriddin Sultonov mehnatining bir chekkasida mening ham kichkina ulushim borligidan xursandman.” [6.]

Ot + ot shaklidagi so'z birikmasi ko'rinishida ifodalangan birikma-metaforalar fikrni aniq va obrazli ifodalashga xizmat qilgan. Matn tarkibida ko'chma ma'noda qo'llangan mehnatining bir chekkasi so'z birikmasidagi CHEKKA leksemasi **“narsalarning, joyning o'rta qismiga, markaziga nisbatan eng cheti, chekka tomoni”** kabi ma'nolarda, bir chekkasi birikmasi esa **“bir cheti, tomoni”** ma'nolarida kelishi qayd etilgan [5; 761-b.]. Muallif **“Yosh gvardiya”** nashriyotida bo'lim boshlig'i bo'lgan paytda jahonga mashhur bir necha asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish ishlariga bosh bo'lib, Ekzyuperining **“Kichik shahzoda”** asarini X. Sultonovga topshirganligini, natijada go'zal tarjima yaratilganini aytib o'tadi va bu ishga sababchi bo'lganligini **“mehnatining bir chekkasi”** metaforik birikmasi orqali namoyon etgan.

Muallif otli metaforik birikmalarni hosil qilishda aniqlovchi-aniqlanmish ko'rinishidagi birikmalarni ko'chma ma'noda qo'llaganligini ko'rishimiz mumkin:

“Jurnaldagi she'rlar bilan ilk kitobimga kirgan she'rlar orasida faqat vaqt emas, o'sha anchagina xom she'rlarimda «nimanidir» ilg'ab, menga oq yo'l tilagan ustoz ishonchini oqlash mas'uliyati ham bor edi.” [4.]

Xom so'zi *****“O'zbek tilining izohli lug'ati”*****da ko'chma ma'noda **“yengil-yelpi, chala, yuzaki”** kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etilgan [5; 66-b.]. Ijodkor bolaligida yozgan she'rlarini chala, yuzaki yozilgan she'rlar deya **“xom”** sifatini qo'llaydi va publitsistik matnga o'zgachalik, ta'sirchanlik olib kirgan.

Metaforik fe'lli birikma. Xurshid Davron publitsistik asarlari tahlili shuni ko'rsatdiki, metaforik birikmalarning ko'p qismini fe'lli birikmalar tashkil qiladi. Xurshid Davron voqea-hodisalarga o'zining subyektiv qarashlarini aks ettirish uchun metaforik fe'lli birikmalardan unumli foydalanganini misollarda ko'rishimiz mumkin.

“Tafakkur” jurnalining 2012-yil 4-sonida e'lon qilingan **“Eng hayotiy ertak”** nomli maqolasida metaforik fe'lli birikmalarni uchratishimiz mumkin:

“Bu ayriliq juda og'ir kechadi. Kichkina shahzoda Feruza gulni sevardi.” [6.]

OG'IR. Ushbu leksema *****“O'zbek tilining izohli lug'ati”*****da o'z ma'nosida **“vazni katta bo'lgan, tosh bosadigan; vaznli, vazmin”** kabi ma'nolarni anglatishi aytilgan bo'lsa, ko'chma ma'noda esa **“mashaqqatli, uqubatli, azobli; murakkab, mushkul”** kabi ma'nolari qayd etilgan [7; 585-b.]. Xurshid Davron Kichkina shahzodaning o'z gulini tashlab, boshqa sayyoralar ketishi dardli va azobli kechayotganligini ifodalash maqsadida og'ir kechadi metaforik birikmasidan o'rinli foydalangan.

“Uning she'rlari ana shu yurak tubidan ko'rinmas buloq kabi, ulug'vor daryo kabi qog'ozga quyilgan; bu satrlar shoir yuragini biron soniya bo'lsa-da tark etmagan o'tli muhabbatdan yaralardi.” [8.]

Yuqoridagi misolda bir nechta so'z birikmasining ko'chma ma'noda qo'llangani matnda tasviriylik va ifodaviylikni yuzaga keltirgan. Yurak tubi — **“ko'ngilning qat-qati”** ma'nosida, qog'ozga quyilgan so'z birikmasida hokim so'z hisoblangan quyilgan so'zi o'z ma'nosida **“suyuqlikning bir idishdan boshqa idishga solinishi”** ma'nosini anglatadi. Ko'chma ma'noda esa **“juda ko'p, kuchli tarzda (oqim tarzida) kelmoq; yog'ilmoq”** kabi ma'nolarni anglatishi qayd etilgan [9; 311-b.].

Yuragini tark etmagan so'z birikmasidagi tark etmoq fe'li *****“O'zbek tilining izohli lug'ati”*****da **“tashlab (qoldirib) chiqib ketmoq”** ma'nosini bildirishi aytilgan [10; 112-b.]. Matnda muallif qog'ozga quyilgan so'z birikmasini **“kuchli ilhom bilan qog'ozga tushirilgan”** ma'nosida, yuragini tark etmagan so'z birikmasini esa **“shoir qalbidan chiqib ketmagan”** ma'nosida qo'llaganligini ko'rishimiz mumkin. Adib ispan shoiri Federiko Lorke she'riyatini tuganmas buloqqa o'xshatib, quyilmoq va tark etmoq fe'llarini konnotativ ma'noda qo'llab, metaforik ma'no yarata olgan.

3. Metaforik frazema. Frazеologik birliklarga soʻzlarning turgʻun birikmalari, maqol, matal hamda aforizmlar mansub deb qaraladi. Frazеologik birikmalardan oʻrinli foydalanish nutqning taʼsirchanligini taʼminlaydi [11; 7-b.]. Xurshid Davron publitsistikasi tahlili shuni koʻrsatdiki, frazeologik birikmalar metaforani yuzaga keltirishda asosiy vositalardan biri sifatida yaqqol koʻzga tashlanadi. Misollar tahliliga oʻtamiz: ***“Men ham boʻsh kelmadim:

— Baribir Lorkani sizdan zoʻr tarjima qilaman!...

...Asti boʻsh kelmay:

— Menikiyam zoʻr, — dedim unga emas, Shavkatga qarab.”** [8.]

BOʻSH soʻzi oʻz maʼnosida “salga uzilib, yulini yoki yirtilib ketadigan, pishiq, puxta emas, jonsiz” kabi maʼnolarni anglatadi, boʻsh kelmoq iborasi esa koʻchma maʼnoda “yutqizmoq, yengilmoq, yon bermoq (bahs, kurash, jang va shu k.)” kabi maʼnolarni anglatadi [12; 728-b.]. Sh. Rahmatullayevning ***“Oʻzbek tili frazeologik lugʻati”***da ushbu ibora “boʻshanglik qilmoq, qatʼiyat bilan himoya qilmaslik, chekinmoq, yengilmoq” kabi maʼnolarni anglatishi qayd etilgan [11; 144-b.]. Muallif tarjima sohasida Sh. Rahmondan qolishmasligini boʻsh kelmaslik frazeologik birikmasi bilan ifodalab, metaforik birikmani hosil qilgan.

“Maʼno inson ongu shuurida, tafakkurida eng avvalo suyak suradi, soʻngra bolalikdan boshlangan hayot saboqlari, tajribalari va undan keyin adabiyot, sanʼat, ilmu fan vositasida paydo boʻladi.” [13.]

Ot + feʼl koʻrinishidagi feʼlli birikmalardan hosil boʻlgan metaforalar orqali adib publitsistik matnga uslubiy boʻyoqdorlik va taʼsirchanlik olib kirganligini koʻrishimiz mumkin.

SUYAK SURMOQ. Ushbu ibora “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” hamda ***“Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati”***da “nasldan naslga oʻtmoq (biror kasallik, irsiy holat va shu k.)” maʼnosini anglatishi aytilgan ([9; 772-b.]; [11; 462-b.]). Muallif maʼnaviyat tushunchasini izohlab, u avvalo inson tafakkurida ajdodlardan avlodlarga oʻtadigan hodisa ekanligini taʼkidlaydi. Fikrlarining ifodaviyligini taʼminlash maqsadida esa suyak suradi metaforik birikmasidan oʻrinli foydalangan.

“Gulxan” jurnalining 2012-yil 12-sonida ijodkor Xurshid Davron bilan “Bolalikning oppoq ranglari” nomi ostida suhbat eʼlon qilingan boʻlib, ushbu suhbatda adib bolaligi toʻgʻrisida hikoya qilib beradi. Suhbat matnida qoʻllangan metaforik birikmalar tahliliga toʻxtalamiz:

— Shundoq Registon maydoni qarshisidagi kinoxonaning orqasiga oʻtib, toʻgʻri yuraversang, ikki qavatli oʻris gʻishtli imoratga koʻzing tushadi.” [14.]

“Qachon oʻsha dastxatga koʻzim tushsa, xursand boʻlib ketaman, keyin oʻsha ishonchni oqladimmi, deb oʻylay boshlayman.” [4.]

Koʻz leksemasidan bir qator iboralar yasalgan. Odatda ibora koʻchma maʼnoda qoʻllanadigan birikma boʻlib, matnga aniqlik, badiiylilik va taʼsirchanlik olib kiradi.

KOʻZI TUSHMOQ. “Koʻrmoq, koʻrib qolmoq” kabi maʼnolarni anglatib [15; 1016-b.], yuqoridagi matnlarda ham aynan shu maʼnoda qoʻllanganligini koʻrishimiz mumkin.

4. Metaforik mazmunli gaplar (gap-metaforalar). Metaforik mazmunli gaplar voqelikni obrazli ifodalash maqsadida qoʻllaniladi. Metaforik mazmunli gaplar publitsistik matnga tasviriylilik, ifodaviylilik va taʼsirchanlik bagʻishlaydi. Bunday holatni Xurshid Davron publitsistik asarlarida ham uchratishimiz mumkin.

Misollar tahliliga toʻxtalamiz.

“Oʻzbekiston sanʼati” jurnalining 1981-yildagi sonlaridan birida eʼlon qilingan “Musavvir boʻlmoq ersang...” nomli essesinde gap-metaforalarning goʻzal namunalari keltirilganligini koʻrishimiz mumkin:

“... Bu yorugʻ dunyoda shunday oydin tun borligidan cholning koʻngli toʻlib ketgan. U oʻlim haqida oʻylardi. Cholning sallasi oyning bir boʻlagidek suzib borayotir.”

“Daraxtlar ertaklardagi uch boshli ajdahodek minorani qoʻriqlab turibdi. Yoʻlovchi bu sehrgarlikdan yoʻlida toʻxtab, toshdek qotib qolgan.”

“Shamol daraxt shoxlarini horgʻin qimirlatadi. Yoʻlga tikilaman. ... Ammo shovillab ertaklar soʻylagan daraxt ostidagi oʻrindiqqa oʻtirib, uni kutaman. Anri Matiss: «Musavvir boʻlishni istasang, tilingni sugʻurib ol», degan edi. Isfandiyor Haydarov ana shunday tilini sugʻurib olgan, yurak naʼralarini boʻyoqlarga ortmoqlagan musavvir.” [16.]

Ushbu misollarning birinchisida yorugʻ dunyo, oydin tun, koʻngli toʻlib ketgan metaforik birikmalari hamda “Cholning sallasi oyning bir boʻlagidek suzib borayotir” gap-metaforasi publitsistik matnga ekspressivlik va ifodaviylilik bagʻishlagan. Matndagi yorugʻ dunyo soʻz birikmasi shaklidagi metafora “kishi hayot kechiradigan yer yuzi (diniy aqidaga koʻra ikki dunyo bor, bu aqidada yorugʻ dunyo narigi, qorongʻi dunyoga qarshi qoʻyiladi)” [11; 559-b.] degan maʼnoni anglatadi. Xurshid Davron ushbu frazeologik birikma orqali publitsistik matn talabi bilan konnotatsiya hosil qilish maqsadiga erishgan.

Oʻxshatishga asoslangan oydin tun birikmasi aniqllovchi-aniqlanmish sintaktik munosabati doirasida metaforani yuzaga keltirmoqda. Bir gap tarkibida bir nechta (yorugʻ dunyo, oydin tun, koʻngli toʻlib ketgan) metaforik birikmalarning qoʻllanishi yaxlit holda metaforik mazmunli gapni yuzaga keltirgan. “Cholning sallasi oyning bir boʻlagidek suzib borayotir” gap-metaforasida esa cholning oydin tunda sekin-asta uyiga qaytayotganligi badiiy tarzda ifodalangan.

Ikkinchi misolda har bir gap yaxlit holda metaforik mazmunli gapni hosil qilgan: **“Daraxtlar ertaklardagi uch boshli ajdahodek minorani qoʻriqlab turibdi. Yoʻlovchi bu sehrgarlikdan yoʻlida toʻxtab, toshdek qotib qolgan.”** Muallif voqea-hodisalar va holatlar tasvirida gap-metaforalarning oʻxshatishli konnotativ maʼnolaridan oʻrinli foydalangan. Daraxtlarning minorani qoʻriqlab turishi minoraning atrofida bir qancha daraxtlarning qoʻriqchidek saf tortib turishini ifodalash uchun qoʻllangan. Matnning mazmuniy davomida esa yoʻlovchi bu sehrgarlikdan yoʻlida toʻxtab, toshdek qotib qoladi. **“Toshdek qotib qolmoq”** frazemasi Sh. Rahmatullayevning ***“Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati”***da **“mutlaqo qimirlamay, qimir etmay”** kabi maʼnolarni anglatishi qayd etilgan [11; 507-b.]. Adib oʻxshatishli

birikmalar va frazemalardan unumli foydalanib, publitsistik matnning emotsional-ekspressivligini ta'minlashga erishgan.

Uchinchi misolda **“Shamol daraxt shoxlarini horg'in qimirlatadi. ... Ammo shovillab ertaklar so'ylagan daraxt ostidagi o'rindiqqa o'tirib, uni kutaman.”** gaplari metaforik mazmun kasb etib, publitsistik matnda ta'sirchanlikni ta'minlagan. Shamolning ohista esishi **“shamolning daraxt shoxlarini horg'in qimirlatishi”**ga o'xshatiladi, shamolda daraxt shoxlarining qimirlashi esa **“shovillab ertaklar so'ylagan daraxt”** metaforik birikmasi orqali ifodalanagan.

Metaforik mazmunli gaplarda bir vaziyat belgilari orqali boshqa vaziyat belgilari ifodalanadi. Bunday gaplar ikki qatlamli semantik tuzilishga ega bo'ladi: tashqi mazmun va ichki mazmun [17; 107-b.]. Masalan, uchinchi misolimizdagi **“Anri Matiss: «Musavvir bo'lishni istasang, tilingni sug'urib ol», degan edi. Isfandiyor Haydarov ana shunday tilini sug'urib olgan, yurak na'ralarini bo'yoqlarga ortmoqlagan musavvir.”** gaplarida muallif **“rassom Isfandiyor Haydarov his-tuyg'ularini so'z bilan emas, balki chizgan rasmlari orqali ifodalaydi”** shaklidagi ichki mazmunga ishora qiladi.

5. Metaforik matn (matn-metaforalar). Metaforalarning matn ko'rinishidagi bunday turi o'zbek nasriy asarlarida keng uchraydi. Matn-metaforalarda mazmunda anglashilgan voqea-hodisa orqali boshqa bir mazmunga ishora qilinadi. Misollar tahliliga to'xtalamiz:

“IKKINCHI SHE'R: «QIZIL TUN»

Qizil tun. Ko'chaga chiqaman. Borliqdan boshqa rang qidiraman, topolmayman. Orqamga qarayman. Endi chiroq ham sariq emas, alvon tili bilan tunni yalaydi. Chiroqning tili — qip-qizil tun. Hech kim uchramasa bo'lgani. Hech kim kerak emas bu lahzada. Qizil tun bilan so'zlashaman. U menga kelajak emas, o'tmish haqida hikoya qila boshlaydi.” [16.]

Muallif esse tarkibida alohida sarlavha bilan yaratgan ushbu kichik matn metaforik mazmunli matnga misol bo'la oladi. Sarlavha ham aniqllovchi-aniqlanmish sintaktik birligi doirasida metaforani yuzaga keltirmoqda. Tun odatda qora rangda ifodalanadi, ammo adib **“qizil tun”** o'xshatishli birikmasidan mohirlik bilan foydalanganini ko'rishimiz mumkin. **“Endi chiroq ham sariq emas, alvon tili bilan tunni yalaydi. Chiroqning tili — qip-qizil tun.”** gaplarida jonlantirish asosida ijodkor publitsistik matnning tasviriyligini yarata olgan, ya'ni matn tarkibida jonsiz narsa-buyumlarning insonga xos xatti-harakatlarni bajarishi metaforaning o'xshatish asosida yuzaga kelganligini bildiradi.

Muallif qizil rangni tunda voqe bo'lgan barcha narsaning rangi sifatida namoyon qiladi. Chiroqning nuri odatda sariq rangda bo'ladi, lekin matn sarlavhasidan tortib mazmunigacha qizil tunga bag'ishlangan bo'lib, chiroqning nuri (tili) endi sariq rangda emas, balki u ham hamma narsa singari alvon rangga kirgan.

YALAMOQ. **“O'zbek tilining izohli lug'ati”**da *yalamoq* so'zi o'z ma'nosida **“yeyish yoki mazasini totish maqsadida biror narsaga tilini tegizmoq; til vositasida og'izga solmoq”** ma'nolarini anglatishi qayd etilgan bo'lsa, ko'chma ma'noda esa **“tegib, urilib ta'sir qilmoq (shamol, sovuq, issiq va shu kabilar haqida)”** kabi ma'nolarni ifodalashi ko'rsatilgan. Muallif *yalamoq* leksemasini ko'chma ma'noda qo'llab, chiroq nurlarining tunda har tomonga tarqalishini **“alvon tili bilan tunni yalaydi. Chiroqning tili — qip-qizil tun.”** gaplari orqali ifodalaydi. Matnda metaforik mazmun borgan sari kuchayib boradi, natijada ijodkor endi tun bilan so'zlashganini jonlantirish asosida ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, metaforalar asosiy lingvomadaniy birliklar sifatida o'zida madaniy qadriyatlarini aks ettirishi bilan alohidalik kasb etadi. Xurshid Davron publitsistik asarlarida metaforaning shakl jihatdan barcha turlaridan (leksema, birikma, frazema, gap, matn) o'rinli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Metaforalar matnga tasviriylilik va ifodaviylilik bag'ishlab, publitsistik nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. *Matn lingvistikasi: o'quv qo'llanma.* – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021.
2. Yo'ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. *Badiiy matnning lisoniy tahlili: metodik qo'llanma.* – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
3. Dedaxanova M. *Modern she'riyatda ma'no ko'chishining lingvokognitiv aspekti:* filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. – Toshkent, 2021.
4. Xurshid Davron. *Ustoz ibratlari.* – URL: <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-ustoz-ibratlari.html>
5. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* VI jild.
6. Xurshid Davron. *Eng hayotiy ertak.* – URL: <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-eng-hayotiy-ertak.html>
7. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* III jild.
8. Xurshid Davron. *Uning cholg'usi yuragi edi.* – URL: <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-uning-cholgusi-yuragi-edi.html>
9. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* IV jild.
10. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* V jild.
11. Rahmatullayev Sh. va boshq. *O'zbek tilining frazeologik lug'ati.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
12. *O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.* I jild.
13. Xurshid Davron. *Umrni ma'noga...* – URL: <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/umrni-manoga-xurshid-davron.html>
14. Xurshid Davron. *Bolalikning oppoq ranglari (Xurshid Davron bilan suhbat).* – URL: <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/bolalikning-oppoq-ranglari-xurshid-davron-bilan-suhbat.html>
15. *O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.* II jild.
16. Xurshid Davron. *Musavvir.* – URL: <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-musavvir.html>
17. Xudoyberganova D. *Matnning antropotsentrik tadqiqi.* – Toshkent: Fan, 2013.